



BUYUK IPAK YO'LINING MARKAZIY OSIYO XALQLARI IJTIMOIY IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Temirova Muhabbat

Maxmirzayeva Gulsevar

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix

yo'nalishi 2-24 guruh talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada insoniyatga uzoq yillar mobaynida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, savdo-sotiq sohasida o'zaro almashinuvda xizmat qilgan savdo yo'lining vujudga kelish tarixi, rivojlanishi, bugungacha va bugungi kundagi holati, yurtimizning ushbu yo'l tarixida tutgan o'rniga doir muhim tarixiy ma'lumotlar berilgan. Buyuk ipak yo'li - mil.avv. II asrdan to milodiy XVI asrgacha, qariyb 1700 yil davomida Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarda xizmat qilgan. Buyuk ipak yo'li ko'pgina davlatlarning tarixiy sivilizatsion aloqalarida muhim vosita sifatida, insoniyatga uzoq yillar mobaynida xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: Ipak, Buyuk, Xan, Chjan Syan, Dovon, Xitoy, Rixtgoften, tranzit, U-Di, Tangiy Ganfu, Kurona, xunlar, Qang'kiya, gazlama, Sian, Zariasp, O'rta Osiyo, Jahon savdo yo'li.

Аннотация: В данной статье рассматривается история создания торгового пути, который долгие годы служил человечеству в экономической, политической, социальной и торговой сферах, его развитие, его статус до сегодняшнего дня и



сегодня, место, которое он занимает. проведенных в истории этого маршрута нашей страны, приводятся важные исторические сведения. Великий шелковый путь – до н.э. Со 2-го века по 16-й век нашей эры он служил в отношениях между Востоком и Западом на протяжении почти 1700 лет. Великий Шелковый путь долгие годы служил человечеству важным инструментом в историко-цивилизационных связях многих стран.

Ключевые слова: Шелк, Великий, Хань, Чжан Сян, Перевал, Китай, Рихтгофен, транзит, У-Ди, Танги Ганфу, Корона, Хунны, Канця, газ, Сиань, Зариасп, Средняя Азия, Мировая Торговля путь.

Asosiy qism. Markaziy Osiyo hududida shakllangan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik savdo yo'llari tizimi Sharq va G'arb xalqlarining hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Mil. avv. III–II ming yilliklardan faoliyatini boshlagan bu yo'lni mil. avv. 138 yilda Chjan szyan Xitoy uchun kashf etdi[1]. XIX asrda “Buyuk ipak yo'li” nomi ilmiy adabiyotlardan o'rin oldi. Bu yo'l tarmoqlari mintaqadagi turli etnoslarning o'zaro aloqalarga zamin yaratgan. Jumladan, mil.avv. IV–III asrlarda shakllangan “dasht yo'li” orqali sug'diylar Xitoy bilan tutash chegaralarga yetib bordilar[2]. Natijada, Amudaryoda to Gansudagi Xesi yo'lagiga qadar Ipak yo'lining “turk–sug'd” yo'nalishi vujudga keldi. Makedon savdogari Maes Tationos ta'biricha, Hieropolis (Hieropolis)dan Xitoy (Sera Metropolis)gacha mil. avv. I ming yillik o'rtalaridan to mil. I ming yillikacha sug'diylar yetakchilik qilishgan[3]. Buyuk ipak yo'li antik davr (I–IV asrlar)da Rim, Parfiya, Kushon va Xan saltanatlari o'rtasida siyosiy va iqtisodiy manfaatlar kurashi maydoniga aylangan. III–IV asrlarda mintaqadagi Qang' va Kushon saltanatlari parchalandi. Shundan so'ng, taxminan 350 yildan Ipak yo'lida sug'diylarning mustaqil faoliyati kuchaydi. Bu davrni mintaq uchun “sug'diylar davri” deb, ham atash mumkin. Ilk o'rta asrlar (V–VIII asrlar)da “Ipak yo'li” uchun Xitoy, Eron, Vizantiya va Turk xoqonligi o'rtasida raqobat davom etdi.



Bu yo‘l tizimining funksional ahamiyati nafaqat tijorat, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot bilan ham belgilanardi. Jumladan, tujjorlar o‘zlari bo‘lgan yurtlari haqida “maxsus suhbat va uchrashuvlar” orqali o‘z hukmdorlariga zaruriy ma’lumotlarni yetkazib turganlar. Sug‘diylar nafaqat mohir savdogar, balki bozorlarga sifatli mahsulot yetkazib beruvchilar ham edi. Sug‘d mahsulotlari Vizantiyadan Koreya va Yaponiyagacha, Tibetdan Shri–Lankagacha quruqlik va dengiz yo‘llari orqali yetib borgan. Xorijda Sug‘dning qishloq xo‘jaligi va hunarmandchiligi mahsulotlariga talab kuchli edi. Xitoy manbalari Sug‘dga: “Iqlimi issiq, sifatli bug‘doy yetishtirishga mos. Aholisi bog‘dorchilik va ziroatchilikka moyil. Daraxtlari ko‘rkam”, – deb ta’rif bergan. Bu davrda Sug‘ddan bog‘dorchilik (shaftoli va gilos), uzumchilik (mayiz) mahsulotlari, zotdor otlari va qo‘ylari Xitoyga eksport qilingan. Hatto ipakchilikda Sug‘d soha vatani Xitoy bilan raqobatlashgan.

O‘rta Osiyo hududlari orqali o‘tgan qadimgi savdo karvon yo‘llari o‘rta asrlar davrida ham ichki va tashqi xalqaro iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ilk o‘rta asrlarda so‘g‘dlar, rivojlangan o‘rta asrlarda Movarounnahr va xorazmliklar, so‘nggi o‘rta asrlarda buxoroliklar va xivaliklar xalqaro aloqalarda katta o‘rin tutib, turli hududlar xalqlarini o‘zaro bog‘lashda asosiy vositachi bo‘lgan edilar[4]. Milodning III asrning ikkinchi yarmi - IV asrda O‘rta Osiyoning o‘troq dehqonchilik vohalariga ko‘chmanchi xalqlar - kidariylar, xioniylar va eftaliylar bostirib kiradilar. Buning natijasida ko‘chmanchi va o‘troq xalqlar o‘rtasida qonli urushlar boshlanib etnik hududlar o‘zgaradi, eski sulolalar inqirozga uchrab yangilari paydo bo‘ladi, madaniyatlar o‘zgarib, yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum paydo bo‘ladi. Yuzaga kelgan vaziyat, geosiyosiy o‘zgarishlar Buyuk Ipak yo‘lidagi savdo jarayonlariga, G‘arb va Yaqin hamda Uzoq Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy va diplomatik munosabatlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi. O‘z ahamiyatini yo‘qota boshlagan yo‘llar o‘rniga mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog‘liq holda xalqaro tranzit aloqa yo‘llarining yangi tarmoqlari vujudga kela boshlaydi.



Mil. avv.1 ming yillikning oxiri-milodiy I ming yillikning boshlariga kelib Tinch okeanidan Atlantika okeaniga qadar cho'zilgan ulkan geografik hudud madaniyati yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarning yagona tizimiga birlashadi. Bu hududda joylashgan davlatlar-Xitoydagi Xan saltanati, Kushon podsholigi, Qang' davlati, Parfiya davlati, Rim saltanatining chegaralari bir-biriga tutash edi. Ushbu zabardast saltanatlar va sivilizatsiyalar markazlari insoniyat tarixidan birinchi bo'lib "Buyuk ipak yo'li" deb nomlanuvchi bir yo'l bilan bog'landilar. Umumiy uzunligi 12 ming km bolib, Xitoydan O'rta Yer dengizining shimoliy qirg'oqlariga qadar cho'zilgan bu yo'l orqali ko'pgina xalqlar va elatlar turli tomonlama munosabatlar o'rnatdilar. Podsholarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Sharq bilan G'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. O'sha davrdagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi. Buyuk ipak yo'li orqali nafaqat savdo karvonlari, balki xalqlarning erishgan madaniy yutuqlari, ma'naviy qadriyatlar, diniy g'oyalari ham jahonga tarqalib borar edi. Buddizm Kushan davlatidagi boshqa dinlar bilan birga hukm surgan bo'lib, bu yerdan to Xitoygacha tarqalgan[5]. **Xulosa.** Eramizning birinchi asrlarida Kichik Osiyodan bu yerga xristianlik dini kelib yetgan. Arab xalifaligining qattiqqo'l harbiy navkarlari VII asrda islom ta'limotini olib kelganlar. Savdogarlar va targ'ibotchilarning o'tkazgan yo'llari bo'ylab mo'g'ullar sahrolaridan Yevropa tekisliklarigacha Chingizxon sahroyi bosqinchilari quyundek o'tgan. Buyuk Ipak yo'lining qoq yuragi bo'lgan Samarqand shahridan o'rta asrlardagi Sharqning buyuk sarkardasi Amir Temur o'z yurishlarini boshlab, zafar quchar edi. Bundan tashqari, karvon yo'llaridan asrlar bo'yi allomalar, tadqiqotchilar ham sayohat qilar edi. Xitoy ruhoniysi Syuan Tszyan va venetsiyalik savdogar Marko Polo, arab sayohatchisi - savdogar Ahmad ibn Fadlan va bavariyalik sarkor Shiltberger, vengriyalik tadqiqotchi Arminiy Vamberi hamda shvetsiyalik geograf Sven Xedin, rus olimi Aleksey Fedchenko va frantsiyalik jurnalist ayoli Ella Mayyar, amerikalik geolog olim Rafael Pampelli va frantsiyalik sayohatchi Jozef Martenlarning yo'lda qayd etgan yozuvlari va ilmiy asarlaridan biz Buyuk Ipak yo'li bo'ylab yotgan mamlakatlarda yashagan xalqlarning



tarixini, ularning urf-odatları va an'alarini bilib oldik. Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan bu beqiyos buyuk yo'lni bunyod etgan xalqlarning tirik bir xotirasi qadimiy O'zbekiston shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent shaharlari bo'lib, ularning me'morchilik yodgorliklari Buyuk Ipak yo'lining ko'p asrlik tarixini o'zida mujassam etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь // Энциклопедический справочник. – Ташкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1999. – С. 12–21;
2. Henning W. B. The date of the Sogdian Ancient Letters // BSOAS. – 1948. – Vol. XII. – Pt. 3–4. – P. 608; Кобзева О.П. Великий шелковый путь: история и современность. – С. 16.
3. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2007. – Б. 66–70;
4. Vatan tarixi-R.Shamsuddinov, Sh.Karimov, Toshkent; 2010./89-90-bet.
5. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008. – Б. 8–131;
6. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
7. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.



9. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
10. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
11. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
12. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
13. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
14. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
16. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
17. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.